

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING G'OVAVIY BADIY XUSUSIYATI

Sharopova Husnidaxon

FarDU talabasi

Annotatsiya: Alisher Navoiy o'zbek she`riyati tarixida g'azal janrini ham mazmun, ham shakl va ham badiiylik jihatidan yuqori cho'qqiga ko'targani sababli uni "G'azal mulkining sultonii" deb e'zozlaydilar. Shundan-da, inglis sharqshunosi A.Gibb "Navoiy turkiygo'y shoirlar uchun ibrat va namunadir", - deb yozganda bu haqiqatni e'tirof etgan edi.

Kalit so'zlar: g'azal, badiiy, majoziy, ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, rindonalik, orifonalik.

Alisher Navoiy g'azallarining mavzu doirasi keng. Ularda ishq (majoziy va haqiqiy), ijtimoiy, falsafiy, axloqiy mavzular shunchalik mahorat bilan yortilganki, natijada har bir g'azal badiiy tafakkurning o'ziga xos mujassamiga aylangan. Alisher Navoiy o'zining g'azallari bilan o'zbek she`riyatidagi g'azal yozish an`anasini rivojlantirdi va navoiyona uslubda yozilgan g'azallarni yaratdi. Navoiyona uslubda yozilgan g'azallar bir mavzuni keng va chuqr yoritish, ruhiy kechinmalarning samimiy va haqqoniyligi, pand-nasihat yoki mav'izaning mavjudligi hamda badiiy tasvir vositalaridan nihoyatda mahorat bilan foydalanganlik bilan ajralib turadi.

Alisher Navoiy o'z g'azallarida "ishq so'zi" (ishqdagi kuyish, yonishlar, ruhiy holat), "rindonalik" va "orifonalik" ning qorishganiga alohida e'tiborni qaratadi. Bu bilan g'azalnavislik ana`nasidagi uslublardan ijodiy ilhomlanish natijasida maydonga kelgan yangi uslubga- navoiyona uslubga ishora qilmoqda. Shuning bilan birga navoiyona uslubda turkiygo'y xalqlar og'zaki ijodidagi "turkiy" va "qo'shuq" navlari xususiyatlaridan ilhomlanish yo'naliishi ham ko'zga tashlanadi. Bas shunday ekan, Alisher Navoiy g'azallari ham forsiy, ham turkiy g'azal va "turkiyu qo'shuq"lar xususiyatlarining qorishuvi natijasida yaratilgan ajoyib asarlardir.

Alisher Navoiyning ana shunday ajoyib g'azallarida turli mavzular bilan birga ishq mavzusi alohida mavqega ega.

Alisher Navoiy she`riyati, jumladan g'azallarida ishq keng qirrali mavzu sifatida qalamga olingan, jumladan insonning insonga, tabiatga nisbatan bo'lgan ishq-muhabbati va, shuning bilan birga, Alloh taologa nisbatan bo'lgan ishqisi masalalari yoritilgan. har ikkala ishq mukammal mujassam bo'lgan shaxsning komillikka-komil inson darajasiga erishuvi shoirning bosh maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Alisher Navoiy:

Ofarinishdin qilib inson g'araz,

Oni aylab xalq ichinda beavaz, - deb hazrati Insonning buyuk maqomidan so'z yuritadi va uning uchungina xos bo'lgan fazilatni-ishqdag'i yonish-kuyish (so'z), samimiylilik va chuqr hissiyotlarni har tomonlama yoritadi. Shundan kelib chiqqan shoir shunday deydi:

Ey Navoiy, ul pari o'Itursa ham ozdur seni,

Kimki insondur aning mahbubi ham inson kerak.

Alisher Navoiy g'azallarida ana shu mahbub-sevimli kishining siymosiportreti ham ma'lum darajada chizilgan.

Alisher Navoiy g'azallaridagi inson, bir tomonidan, go'zal mahbuba bo'lsa, ikkinchi tomonidan, do'st, yor, erkak jinsidagi yaqin kishi ham bo'lib keladi. Bu fikrning isboti uchun ulug' shoirning mashhur "qaro ko'zum" g'azalini eslatish mumkin:

Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il

Ko'zum qorasida mardum kabi vatan qilg'il.

Mazkur g'azal ko'pgina adabiyotshunoslar, jumladan Natan Mallaev, Ismatullo Abdullaev, Nusratullo Jumaev va boshqalar tomonidan tahlil qilingan va bu haqda turli xil bahslar yuritilgan. Men bu o'rinda ana shu bahsga qatnashib, o'zining ancha asosli fikrlarini bayon etgan arabshunos, adabiyotshunos va tasavvufshunos olim akademik Alibek Rustamovning ayrim fikrlarini aynan keltirib, tug'ilishi mumkin bo'lgan har xil savollarga ham undan javob topsa bo'ladi, deb o'layman:

"Navoiyning bu g'azaldagi manzuri (ya`ni mahbubi) insonmi yoki Xudomi, degan masalani hal qilaylik. "qora ko'z"ni Xudo deb tushinish, birinchidan, ilmiy ma'lumotning etishmasligi natijasida vujudga kelgan taassub, ikkinchidan, fazlfurushlikka bo'lgan intilish natijasidir. Navoiy shaklsiz Oliy vujudga (Allohga) "qora ko'zum" deb murojaat qilmaydi, undan inson qiyofasiga kirishni talab qilmaydi va uning "yuzidagi ter"ni ko'rib o'lmaydi..."

Navoiyning bu g'azaliga manzuri (mahbubi) yigitmi, qizmi degan savolga yigit deb javob berishimiz kerak bo'ladi... Uning yigitligini tan olmaslikka harakat qilish Navoiyning ishq ma`naviy ishq ekanligini hisobga olmaslik natijasidir. Ma`naviy ishqda jins va yoshning ahamiyati bo'lmaydi".

Bundan ma'lum bo'ladi, Navoiy g'azaliyotida ham insoniy (ayol-erkak o'rtasidagi), ham ma`naviy (jinsi farq qilmaydi) hamda haqiqiy (Alloh taolaga nisbatan) ishq o'z ifodasini topgan bo'lib, ana shu asosda uning timsollari ham belgilanadi: oshiq-ma`shuqa, do'st-yor, Alloh-solik va boshqalar.

Navoiy talqini bo'yicha, ishq - bulhavaslik, mas`uliyatsizlik va axloqsizlikni emas, balki samimiylit, fidoiyilik va o'zni idora qila bilishlikni talab qiladi.

Gar jafo qil, gar vafokim, dilsitonim sen mening,

Gar meni o'Itur v agar turguzki, jomim sen mening.

Alisher Navoiy she`riyatida haqiqiy ishq - Alloh taologa nisbatan bo'Igan muhabbat, uning zotiy sifatlariga intilish jarayonida komillikka erishuv masalalari, Rasululloh Muhammad hazratlariga bo'Igan sadoqat kabi tasavvufiy mavzular ham qalamga olingan. Bu mavzu faqat alohida g'azallar (na`t, hamd, mav`iza) dagina emas, balki boshqa mavzulardagi g'azallar zimnida ham o'z aksini topgan. Shuning uchun bu mavzu keng qamrovli bo'lib, uning o'ziga xos timsol va badiiy tasvir vositalari borki, bu mavzudagi g'azallarni tahlil va talqin qilish jarayonida ularni e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Shuni nazarda tutgan Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoni" tarkibidagi devonlarni hamd, na`t va mav`iza g'azallardan boshlaydi. Masalan, "g'aroyib ul-sig'ar" devonining "Ashraqat", "Zihi husnung", "Ey hamd", "Iloho, podshoho, kirdikoro" so'zлari bilan boshlanadigan, "Navodir ush-shabob" devonining "Zihi zuhuri jamoling", "Ilohiy amringa" kabi so'zlar bilan boshlanadigan hamd g'azallar hamda "Ey nubuvvat", "Zihi javlongahing", ("G'aroyib us-sig'ar"), "Zihi buroqing", "Bediling xayli rusul" ("Navodir ush-shabob") kabi na`t g'azallar bilan boshlanishi ham bejiz emas.

Qayd qilinganidek, butun "Xazoyin ul-maoni" "G'aroyib us-sig'ar" dagi birinchi g'azal - "Ashraqat" bilan boshlanadi (ma`lumki, "Badoe` ul-bidoya" ham shu g'azal bilan boshlangan edi). Alisher Navoiyning bu g'azalga bunchalik e`tibor berishining sababi nimadag' Buning asosiy sababi, bizningcha, shundan iborat bo'lsa kerakki, g'azalda inson va Alloh taolo, inson va koinot, inson va komillik, insonning o'zligini hamda Oliy haqiqatni tanishi kabi falsafiy masalalar tasavvufiy idrok va talqinda berilgan. Bu masalalar esa dunyoqarashning asosiy falsafiy tamoyillari bo'lib, ularning badiiy in`ikosi butun she`riyatda amalga oshirilgan. Shu jihatdan bu g'azal "Xazoyin ul-maoni" xazinasining kaliti vazifasini ham o'tagan ko'rindi. Chunki bu g'azalning asl mohiyatiga etgan kishi "Xazoyin ul-maoni"da bayon etilgan badiiy tafakkur mahsulini yaxshi anglab oladi.

G'azalning birinchi bayti husni matla` bo'lib, unda shoir butun g'azalda ifoda etmoqchi bo'Igan fikrning mohiyati - mag'zini hamda "jomu may"ning botiniy - tasavvufiy ma`nosini bayon etgan.

"G'aroyib us-sig'ar" devonidagi "Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro" misrasi bilan boshlanadigan na`t g'azalda Rasululloh

Muhammad (s.a.s.) hazratlaridan, ul nabining fazilatlaridan bahs yuritilgan. Bunday g'azallar "Xazoyin ul-maoni" tarkibidagi har bir devonda ham bor.

Alisher Navoiy she`riyatidagi tasavvufiy mavzular insonni komillik sari intilishlarini islomiy falsafa nuqtayi nazaridan badiiyat qonuniyatlari doirasida bayon etadi.

Alisher Navoiy she`riyati-g'azallarida ijtimoiy, siyosiy hayotning muhim muammolari, o'sha davrdagi turli tabaqa vakillari haqidagi mulohazalar, go'zal axloqqa doir pand-nasihatlar ham qalamga olingan.

Alisher Navoiy g'azallarida ijtimoiy-siyosiy hayotning muhim muammolaridan bo'l mish jamiyatni boshqarish, boshqaruvchilarning qanday bo'l mog'i lozimligi haqida diqqatga sazovor mulohazalar bayon etilgan. Jumladan:

Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,

Mulkkim, sultoni yo'q, jismedururkim joni yo'q.

Bu baytda asosiy diqqat ko'ngulning yordan ayrimog'i mumkin emas, chunki ko'ngul mulkining joni-sultoni yordir, degan fikrga qaratilgan bo'lsa-da, ammo shoir bu fikrni kuchaytirish maqsadida uni ijtimoiy-siyosiy hayotdagi hodisa - mamlakatning sultonsiz (boshqaruv boshlig'i ma`nosida) bo'lishi mumkin emasligi, ya`ni sulton (boshqaruv boshlig'i) mamlakatning joni ekanligi bilan qiyoslaydi. Bu bilan Alisher Navoiy o'zining jamiyat va uning boshqaruvi (sulton, shoh) to'g'risidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifoda etadi. Shuning bilan birga boshqaruv boshlig'i - shoh, sultonning qanday fazilatlar sohibi bo'l mog'i lozimligiga ham e'tiborni qaratib, shunday yozadi:

Vasl ila qilg'il buzuq ko'nglum ilojinkim, qilur

Shoh adl etmak bila vayronalar ta`mirini.

"Xazoyin ul-maoni" da she`riyatning boshqa nav'lari - ruboiy, qit'a, qasida, muxammas, soqiynoma, tuyuq va boshqalar ham kiritilgan. Shulardan ayimlarini ko'zdan kechirish maqsadga muvofiqdir.

1. Ruboiy. Alisher Navoiy ruboiy janrida ko'p asarlar bitgan bo'lsa-da, ularidan 133 tasini "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibiga kiritgan. Ruboilyar mumtoz she`riyat nazariyasi talablariga to'la javob beradi. Ular hamd, na't hamda falsafiy-ijtimoiy, ishqiy-axloqiy mavzularga bag'ishlangan. Alisher Navoiy ruboilyaridan ayrim namunalar aytiganlarga misol bo'la oladi:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehrubon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa

Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

Kim istasa sultanat saxodur anga shart,

Har va`daki aylasa, vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.

Mazkur ruboiylar "G'aroyib us-sig'ar" devoniga kiritilgani uqtirilgan edi. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" uchun yozgan debochasida ham ruboiylar bor. Ularda hasbi hollik xususiyatlari hamda ma'lum tarixiy voqeani ifodalash ko'proq ko'zga tashlanadi.

Jumladan:

Shoirlig' ila shuhra qilib otimni,
Zor qildim she'r ila avqotimni.
Emdi tuzayin Tengriga tootimni,
Ko'p elga mushavvash etmay ab'yotimni

Shunday qilib, Alisher Navoiy ruboiylarining bir guruhi an'anaviy mavzularda (ishq, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy...) yozilgan bo'lsa, ikkinchi guruhida ruboiy yozilayotgan davrdagi tarixiy hodisalar, shoir kayfiyati, hasbi holi bayoni ham o'rin olgan.

2. Qit'a. "Xazoyin ul-maoni" tarkibidagi hamma devonlarda mavjud bo'lgan qit`alarning soni 210 tani tashkil etadi.

Ammo Alisher Navoiyning qit`alari nasriy asarlarida ham ko'plab uchraydiki, ularning hammasi ham "Xazoyin ul-maoni" tarkibiga kiritilgan emas.

"Xazoyin ul-maoni" dagi qit`alar shakl va mazmun jihatidan mumtoz she'rshunoslikning mazkur nav` (janr)oldiga qo'ygan talablariga mosdir. Alisher Navoiy o'z qit`alarining ahamiyati haqida shunday yozadi:

Mundoq muqattaotkim, men yig'misham erur,
Har bir hadiqai xirad aylar uchun farog'.
Majmo'in uyla kishvare anglaki, sathini,
Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog'.

Mazmuni: Men yiqqan qit`alarning har biri osoyishta yashash uchun bilim bog'laridir. Ularning barchasini bir mamlakat deb tasavvur etsang, har bir qit`ani esa donishmandlik suyi bilan sug'orilgan bog' deb bilgil. Alisher Navoiyning ta`kidlaganidek, uning turli mavzularda bitilgan qit`alari hayotiy tajriba hikmatlari va donishmand mutafakkirning kuzatishlari natijasidir. Shuning uchun shoir qit`alarga alohida e'tibor berib, ularni sarlavhalar bilan ham ta`minlagan. qit'a va uning sarlavhalari yaxlit olinganda shoir aytmoqchi fikr, ko'zda tutilgan maqsad yaqqol namoyon bo'ladi. Shunisi ham borki, qit`alarga yozilgan sarlavhalarning har biri maqol va hikmatli so'z darajasiga ko'tarilgan. Masalan, "Yomon yomonligini qilmasa, yaxshilig'cha bor va bir yaxshilig' qilsa, o'n yaxshi qilg'cha, "Falokatdin ayog'iga kashf bo'lmag'anga chun kafsh uchun ayog'i bor, shukr vojibdur", "Do'stdinkim,

dushman xo'yi bo'lg'ay, dushman yaxshiroqdurki, do'st ro'yi bo'lg'ay" va boshqalar.

3. Qasida. Alisher Navoiyning o'zbek tilida yozgan mashhur qasidasi "hiloliya" deb atalib, u 1469 yilda Sulton Husayn Boyqaroning taxtga chiqish marosimi munosabati bilan unga (shohga) taqdim etilgan. qasida yangi oy - hilolning tasviri bilan boshlanib, koinot sayyoralaridan Bahrom (Mars), Atorud (Merkuriy) kabilar, tuqko'z falaklardan so'z yuritiladi. qiziq bir tasvir bor, u ham bo'lsa, shoir xayolan Atorud bilan Shoh Abulg'ozi Sulton Husayn haqida mushoiraga kiradi va o'z madhiya bayti bilan "Atorudni xijil" qiladi, parivash do'sti va Sulton Husaynning ham baytlar bitganliklarini tasvirlaydi. Shundan so'ng Sulton husayn Boyqaro madhi beriladi:

Qaysi shoh ulkim, azaldin haqqa ul er mish murod,
Xalq qilmoqqa salotin gavharining xilqatin:
Shoh Abulg'ozi saodat axtari Sulton Husayn
Kim quyoshni zarra der ko'rgan sipehri hashmatin.

Shoir Sulton Husayn Boyqaroning sifat va fazilatlarini madhiya qasidalarini talablariga muvofiq tarzda tasvirlaydi va unga uzoq umr, yangi-yangi zafarlar tilab tugatadi.

"Xazoyin ul-maoni" dagi boshqa janrlar ham Alisher Navoiy shoirlik dahosining mahsuli sifatida ham mazmun va mavzu hamda badiiylik jihatidan ibrat va namunadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). I-qism. – Sam.: Sam DU nashri, 2002.
2. B. Valixojayev. Alisher Navoiy sheriysi (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU, 2001.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O'quv qo'llanma) –T.: Yangi asr, 2006.
4. Salohiy D. Navoiy nazmiyoti (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2012.
5. Salohiy D. Alisher Navoiy she'riyati (Uslubiy qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2011.
6. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 1-6 tomlar. – T.: Fan, 1986-1990.
7. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar. –Toshkent: Tamaddun, 2012.
8. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: G'.G'. nomidagi Adabiyot va san'at, 1979.